

SAYIDIRAXIMOVA Nasiba Sayidmaxamadovna
*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
 O'zbek va xorijiy tillar kafedrası
 dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*
 Email: sayidiraximova@gmail.com

SINTAKTIK ANTONIMLAR PARADIGMASINING FUNKSIONAL-KOGNITIV MODELLARI

ФУНКЦИОНАЛЬНО- КОГНИТИВНЫЕ МОДЕЛИ ПАРАДИГМЫ СИНТАКСИЧЕСКИХ АНТОНИМОВ

FUNCTIONAL-COGNITIVE MODELS OF THE PARADIGM OF SYNTACTIC ANTONYMS

Annotatsiya. Maqolada sintaktik antonimlar paradigmasi funksional-kognitiv yondashuv asosida tadqiq etiladi. Antonimik konstruksiyalarning konseptual mohiyati, diskursdagi vazifalari va kommunikativ imkoniyatlari tahlil qilinadi. O'zbek tilidagi misollar asosida sintaktik antonimlarning kognitiv-diskursiv imkoniyatlari ham o'rganiladi. Tadqiqot natijalari sintaktik antonimiyani modellashtirish, ularning paradigmatic tizimini aniqlash hamda til va tafakkur munosabatlarini chuqurroq yoritishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Tayanch iboralar: sintaktik antonimlar paradigmasi, funksional-kognitiv yondashuv, antonimik konstruksiyalarning konseptual mohiyati, sintaktik antonimlarning diskursdagi vazifalari, antonimlarning kognitiv-diskursiv imkoniyatlari.

Аннотация. В данной статье синтаксические антонимы рассматриваются в рамках функционально-когнитивного подхода. Анализируются концептуальная природа антонимических конструкций, их дискурсивные функции и коммуникативные возможности. На примере узбекского языка изучаются когнитивно-дискурсивные возможности синтаксических антонимов. Результаты исследования способствуют моделированию синтаксических антонимов, выявлению их парадигматической структуры и углублению понимания взаимосвязи языка и мышления.

Ключевые слова: парадигма синтаксических антонимов, функционально-когнитивный подход, концептуальная природа антонимических конструкций, дискурсивные функции синтаксических антонимов, когнитивно-дискурсивные возможности антонимов.

Abstract. The article investigates the paradigm of syntactic antonyms from a functional-cognitive perspective. The conceptual nature of antonymic constructions, their discursive functions, and communicative potential are analyzed. Based on examples from the Uzbek language, the cognitive-discursive capabilities of syntactic antonyms are also examined. The findings contribute to modeling syntactic antonyms, identifying their paradigmatic structure, and deepening the understanding of the relationship between language and cognition.

Keywords: paradigm of syntactic antonyms, functional-cognitive approach, conceptual nature of antonymic constructions, discursive functions of syntactic antonyms, cognitive-discursive capabilities of antonyms.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini faqat formal-struktur jihatdan emas, balki ularning inson tafakkuri, bilish jarayonlari va kommunikativ faoliyat bilan uzviy bog'liqligi asosida o'rganish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kognitiv tilshunoslik va funksional yondashuv doirasida til hodisalarini konseptual modellar orqali izohlash tilning lisoniy manzarasini chuqurroq anglash imkonini bermoqda. Shu nuqtayi nazardan, sintaktik antonimlar paradigmasi til va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beruvchi muhim lingvistik hodisa sifatida e'tiborni tortadi.

Sintaktik antonimlar nafaqat qarama-qarshi ma'noni ifodalovchi konstruksiyalar majmuyi, balki borliqdagi ziddiyatli munosabatlarning lisoniy modeli sifatida namoyon bo'ladi. Ular nutqda subyekt va obyekt munosabatining almashuvi, sabab-natija, shart-oqibat, tasdiq-inkor kabi mantiqiy qarama-qarshiliklar asosida shakllanib, kommunikativ maqsad va diskursiv strategiyaga xizmat qiladi. Demak, sintaktik antonimlarni paradigmatic tizim sifatida o'rganish ularning funksional yukini hamda kognitiv mohiyatini aniqlashni taqozo etadi.

Funksional-kognitiv yondashuvda sintaktik antonimlar nutq egasining konseptual tanlovi, diqqat markazi va baholash pozitsiyasi bilan chambarchas bog'liq holda talqin qilinadi. Bunda antonimik

konstruksiyaalar faqat grammatik ziddiyat emas, balki konseptual qarama-qarshilikning sintaktik shakllanishi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, sintaktik antonimlar paradigmasining funksional-kognitiv modellarini aniqlash til birliklarining diskursdagi ishlatilish mexanizmlarini, ularning pragmatik va semantik imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur maqolada sintaktik antonimlarning paradigmatic tizimi kognitiv modellashtirish asosida tahlil qilinib, ularning funksional xususiyatlari, konseptual asoslari va nutqdagi voqelanish shakllari yoritiladi. Bu esa o‘zbek tilshunosligida sintaktik antonimiyani yangi nazariy-metodologik asosda talqin qilish, shuningdek, til va tafakkur munosabatlarini chuqurroq anglashga zamin yaratadi.

ASOSIY QISM

Sintaktik antonimlar tilda qarama-qarshi ma’nolarni anglatuvchi konstruksiyalarning grammatik va sintaktik vositalar orqali ifodalanishiga asoslanadi. Bunday antonimiyada nafaqat leksik birliklar, balki butun sintaktik tuzilmalar ham ishtirok etadi. Zid munosabatli konseptlar esa bunday antonimiyaning ma’no jihatidan asosiy ustuni hisoblanadi, ya’ni ular turli sintaktik shakllarda ifodalanib, tilda qarama-qarshi munosabatlarni namoyon qiladi. Sintaktik antonimlarda zid munosabatli konseptlarning voqelanishi bir qancha omillar asosida yuz beradi.

Konseptlar – inson tafakkurida ma’lum bir voqelikni ifodalaydigan ma’noiy tuzilmalar bo‘lib, ular til orqali o‘zlashtiriladi va turli til birliklari orqali aks etadi. Zid munosabatli konseptlar – bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan, birini anglash uchun ikkinchisini inkor qilish lozim bo‘lgan ma’naviy tuzilmalardir. Zid munosabatli konseptlar sintaktik antonimiyada muhim o‘rin tutadi, chunki ular: qarama-qarshi ma’nolarni ko‘rsatadi hamda tildagi munosabatlar tizimida zidlikni shakllantiradi; muloqot jarayonida muhim stilistik vosita vazifasini bajaradi, ya’ni hikoya va mulohaza jarayonida kontrastli fikrlarni ifodalaydi; mantiqiy va ritorik effekt yaratadi, aniqrog‘i, nutqni kuchaytirib, fikrning ta’sirchanligini oshiradi; fikrni ravshanlashtirib, matndagi mazmunni aniqlashtirishga yordam beradi; inson ongida zidlik nafaqat leksik, balki ko‘chimlar orqali ham yuzaga chiqadi; metafora va metonimiya kognitiv jarayon sifatida antonimiyani semantik jihatdan

kuchaytiradi. Xullas, sintaktik antonimiya faqat grammatik yoki leksik zidlik emas, balki badiiy va konseptual zidlikni ham aks ettiradi. Bunday vositalar inson tafakkurining assosiatsiya, simbolizm va abstraksiya qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, tilning semantik boyligi va fikrlash modellarining universalligini namoyon qiladi.

Umuman olganda, sintaktik antonimiya tilda zid munosabatli konseptlarni ifodalashning muhim vositasi bo‘lib, u turli grammatik, morfologik va sintaktik usullar orqali namoyon bo‘ladi. Bunday zidliklar mavjudlik va mavjud emaslik, harakat va harakatsizlik, yo‘nalish va teskari yo‘nalish, ijobiy va salbiy munosabat, talab va taqiq kabi konseptlar asosida quriladi. Shuningdek, ular turli inkor vositalari, struktur o‘zgarishlar, yo‘nalishli harakatlar va bog‘lovchilar orqali shakllanadi. Sintaktik antonimiyaning konseptual – lingvokognitiv tahlili esa tilshunoslikda semantik va sintaktik munosabatlarni chuqurroq anglashga yordam beradi va uning muloqotdagi rolini yaxshiroq tushunish imkonini yaratadi.

Sintaktik antonimlar paradigmasi funksional-kognitiv lingvistikada til birliklari o‘rtasidagi semantik munosabatlarni tushuntirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Funksional-kognitiv nuqtayi nazardan sintaktik antonimlar paradigmasi tilning tuzilmasi bilan inson ongidagi fikrlash jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Ushbu yondashuvda sintaktik antonimlar turli kognitiv mexanizmlarni (*mamnunlik - qoniqmaslik, qabul qilish - rad etish, sabab - oqibat* kabi) ko‘rsatadi va ularnin nutqda qanday interpretasiyalanishini aniqlashga yordam beradi. Quyida sintaktik antonimlar paradigmasiga doir tushunchalarni va misollar orqali izohlashga harakat qilamiz:

1. Sintaktik antonimlar paradigmasining funksional kognitiv asosi. Sintaktik antonimiyaning paradigmatic xususiyatlari lingvistik, kognitiv va funksional nuqtayi nazardan o‘rganilishi tilni nafaqat strukturalar majmuasi, balki ongida voqelik aksini ifoda etuvchi ma’no tizimi sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Inson ongida reallikning qarama-qarshi munosabatlardagi idrok etilishi tilda sintaktik qarama-qarshiliklar orqali shakllanadi. Bu jarayonni modellashtirish uchun funksional-kognitiv yondashuv ayniqsa samarali hisoblanadi. Funksional-kognitiv lingvistikada til real borliq haqidagi bilimlarni shakllantirish va uzatish vositasi sifatida qaraladi. Gap tuzilishlari orqali faoliyat, holat va munosabatlarni ifodalash

jarayoni tafakkurning mental modellari bilan bog'liq. Bu yondashuvda tildagi antonimik strukturalar faqat leksik emas, balki sintaktik darajada ham **dixotomik konseptlar, kognitiv ssenariylar, mental freymlar** shaklida namoyon bo'ladi.

A.Vejbiskaya [1], E.S.Kubryakova [2], T.V.Buligina [3], J.Lakoff [4] kabi olimlar lingvistikada binar kategoriyalar va zidlikka asoslangan ma'no shakllanishini inson ongidagi tasniflash mexanizmi deb hisoblaydilar. Bu modellar tilda qarama-qarshilikni anglatuvchi strukturaviy va ma'no moslikka ega konstruksiyalarni yaratishda asos bo'ladi. Sintaktik antonimlar paradigmasining kognitiv tuzilishi ma'noda qarama-qarshi bo'lgan, ammo struktura jihatdan parallel bo'lgan konstruksiyalarni o'z ichiga oladi. Masalan, "*U ishga ketdi* ↔ *U ishdan qaytdi*"; "*Hamma jim* ↔ *Hamma gapirayapti*"; "*Men roziman* ↔ *Men rozi emasman*" kabi. Berilgan misollarda bir xil subyekt, bir xil struktura, ammo zid harakat, holat yoki munosabat aks ettirilgan. Demak, sintaktik antonimlar kognitiv jihatdan real dunyodagi holatlar o'rtasidagi oppozitsiyani mental tafakkur doirasida aks ettiruvchi birliklar sanaladi. Bunda sintaktik antonimlarning paradigmasining bir qator funksional-kognitiv modellarini ajratish mumkin. Masalan:

1. Kontrastiv model. Mazkur modelda real voqealikdagi harakatning qarama-qarshi yo'nalishlari, masalan, "*U keldi*" va "*U ketdi*" kabi konstruksiyalar orqali ifoda etiladi. Bu qarama-qarshilik kognitiv ongda *mavjudlik* ↔ *yo'qlik* binar zidligini shakllantiradi. Tafakkurda shaxsning mavjud bo'lishi – "*u kelganda*" va "*u ketganida*" gi mavjud emaslikka nisbatan anglanadi. Bu holat insonning makon va zamondagi pozitsiyasini idrok etish qobiliyatiga tayanadi.

2. Interaktiv (dialogik) model. Bu model, asosan, muloqot jarayonidagi zid fikrlarni bayon qilishda qo'llaniladi. Masalan, "*Men roziman*" va "*Men rozi emasman*" singari konstruksiyalar insonning turli munosabatlarini ifoda etadi. Kognitiv ssenariyda bu qarama-qarshilik nutqiy subyektning ma'lum voqeaga nisbatan qo'llab-quvvatlovchi yoki rad etuvchi pozitsiyasini anglatadi. Bunday modellar muloqotda qarama-qarshi nuqtayi nazarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

3. Epistemik model. Ushbu model insonning bilimga, ma'lumotga nisbatan ishonch

yoki shubhasi orqali shakllanadi. Masalan, "*Ishonchim komil*" ↔ "*Shubhalanaman*" tipidagi zid konstruksiyalar bilish jarayonidagi ikki xil kognitiv holatni tasvirlaydi. Bu modelda subyektiv baholash, ma'lumotga nisbatan yondashuv turlari orqali ma'nolar zidligi yuzaga chiqadi.

4. Maqsad modeli. Bunday modellarda subyektning harakatlarida maqsadga intilish va maqsaddan voz kechish holatlari ifodalanadi. Masalan, "*U ishga kirdi*" ↔ "*U ishdan chiqdi*" konstruksiyalari harakatning boshlanishi va tugashi, natijaning mavjudligi yoki yo'qligini anglatadi. Kognitiv tafakkurda bu maqsad sari harakat ↔ maqsaddan orqaga qaytish sifatida modellanadi.

5. Makon modeli. Bunday modellarda joyga nisbatan harakatning qarama-qarshi yo'nalishlari ko'rsatiladi. Masalan, "*Men uyga kirdim*" ↔ "*Men uydan chiqdim*". Bu model inson ongidagi makonga oid harakatlarni qabul qilish qobiliyati va bilimlari bilan bog'liq bo'lib, makondagi ob'ektlarning quyidagi zid holatini aks ettiradi: *ichki makon* ↔ *tashqi makon* kabi.

6. Emosional model. Bu model hissiy holatlarning ijobiy va salbiy qutblari o'rtasidagi zidlikka asoslanadi. Masalan, "*Uning jahli chiqdi*" ↔ "*U kayfiyati ko'tarildi*" kabi. Bu turdagi antonim konstruksiyalar inson tafakkurida emotiv holatlar tizimidagi qarama-qarshilik sifatida namoyon bo'ladi. Bunday modellar badiiy matnlarda hissiy ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladi.

7. Normativ model. Normativ, ya'ni me'yoriy model asosidan shukllangan sintaktik antonimlarda jamiyatdagi qonun-qoidalar, ruxsat va taqiqlar orasidagi zidlik aks etadi. Masalan, "*Bu mumkin*" ↔ "*Bu taqiqlangan*" kabi konstruksiyalar orqali inson ongida munosabat me'yordaligi ↔ normaning buzilishi sifatidagi konseptlar faollashadi. Bunday modellar huquqiy, axloqiy va ijtimoiy muhokamalarda faol qo'llanadi.

8. Miqdoriy model. Ushbu modelda subyektlar yoki predmetlar miqdoriga asoslangan zidlik aks etadi. Masalan, "*Hamma keldi*" ↔ "*Hech kim kelmadi*" kabi konstruksiyalar miqdordagi to'liqlik va mutlaq bo'shliqni namoyon qiladi. Tafakkurda bu holat hammaviy yuz berish ↔ mutlaq yo'qlik kontrastini hosil qiladi. Axborotning miqdoriy tartibi ana shu qarama-qarshilik orqali ifoda etiladi. Yuqoridagilarga tayanib, aytish muminki, ushbu modellar inson tafakkuridagi asosiy zidliklar (*bor* ↔ *yo'q*; *yaxshi* ↔ *yomon*; *kerak* ↔ *mumkin emas*; *ko'p* ↔ *kam* va hokazolar)ni sintaktik strukturalar

orqali ifoda etish mexanizmlarini yaratadi. Har bir model o'zida muayyan kognitiv ssenariyni anglatadi va tilda turli pragmatik funksiyani bajaradi. Ular antonimiyaning sintaktik, semiotik va kommunikativ, shuningdek, lingvokognitiv asosini tashkil etadi. Endi ularni jadvallar ko'rib chiqamiz:

Model nomi	Misollar	Funksiya	Semiotik belgi vazifasi	Izoh
Kontrastiv model	<i>U keldi ↔ U ketdi</i>	Zid harakatni ta'kidlash, taassurotni kuchaytirish	Holat o'zgarishi, fazoviy nuqtada qarama-qarshilik belgisi	“Keldi” va “ketdi” – makonga nisbatan qarama-qarshi harakatlar. Inson tafakkurida “ <i>borlik/yo'qlik</i> ” binarliligi ishga tushadi
Interaktiv (dialogik) model	<i>Men roziman ↔ Men rozi emasman</i>	Fikr bildirish, zid munosabatni bayon qilish	Nutqiy inkor belgisi, iltimos/javob kategoriyasidagi zidlik	Subyektning pozitsiyasi ifoda etiladi; zid fikrlar qarama-qarshi formulalarda namoyon bo'ladi
Epistemik model	<i>Men ishonchim komil ↔ Men shubhalanman</i>	Bilish darajasini ifoda etish, kognitiv noaniqlikni ko'rsatish	Ishonch ↔ shubha belgisi, bilish jarayonidagi nuqson	Bu konstruksiyalar subyektning bilimiga nisbatan munosabatini semiotik qarama-qarshilikda namoyon qiladi
Maqsadli model	<i>Ishga kirdi ↔ Ishdan chiqdi</i>	Harakat yo'nalishi, maqsadga qarash va voz kechish	Maksadli kirish va chiqish harakati belgisi	Ishlash jarayonidagi harakat dinamikasi zidlikda namoyon bo'ladi
Fazoviy model	<i>Men xonaga kirdim ↔ Men xonaning tashqari-sida turibman</i>	Makonda yo'nalishni ko'rsatish	Kirish ↔ tashqarida bo'lish – joydagi mavqe'ni belgi sifatida ifoda etish	Mental jihatdan subyektning fizik holati belgilar orqali ko'rsatiladi
Emosional model	<i>U xursand bo'ldi ↔ U qayg'uga cho'mdi</i>	Hissiy ta'sirni etkazish	Ijobiy ↔ salbiy holat belgisi, emotiv yuklama	Subyektning ichki holati leksik-strukturaviy antonimlikda ifoda topadi
Normativ model	<i>Bu mumkin ↔ Bu taqiqlangan</i>	Axloqiy/qonu-niy baho berish	Ruxsat ↔ man etish – huquqiy belgi, qonuniy zidlik	Jamiyatdagi ruxsat etilgan va inkor fe'llar kognitiv tassavurda yuzaga chiqadi
Miqdoriy model	<i>Hamma keldi ↔ Hech kim kelmadi</i>	Axborotda to'liqlik yoki bo'shliqni ifoda etish	Ko'p ↔ nol miqdor belgisi, statistik tasavvur	Bu konstruksiyalar subyekt miqdoridagi zidlikni semantik va kognitiv jihatdan aks ettiradi

Ko'rinadiki, sintaktik antonim modellari tilda semantik zidlikni ifoda etish bilan cheklanib qolmay, **kognitiv jarayonlarni aks ettiruvchi semiotik strukturalar** ham hisoblanadi. Ularning funksiyasi insonning voqelikni qabul qilishi, baholashi va u haqda fikr bildirishini tinglovchiga etkazish bo'lsa, semiozisi¹ esa belgilar tizimi orqali ma'lum ma'nolarni tasniflash va tushuntirishdir. Shunday ekan, sintaktik antonimlar **belgilar tizimi** sifatida ishlaydi. Ular tilda muayyan ma'nolar va zidliklarni *belgilaydi*. Masalan, “*Men roziman*” ↔ “*Men rozi emasman*” – bu ikki **sintaktik konstruksiya** realikka nisbatan **qarama-qarshi munosabatlar belgisidir**. Ular orqali subyekt nutqiy aktini (qo'llab-quvvatlash ↔ rad etish) anglatadi. Shuningdek, ularning semiozisi faol ma'no yuzaga keltirish mexanizmi sanaladi. **Sintaktik antonimiya** — bu **semiotik belgilar tizimi** bo'lib, u reallikdagi ikki qarama-qarshi holatni anglatuvchi konstruksiyalarni semiozis orqali ma'no beruvchi *til belgisiga* aylantiradi.

¹ **Semiozis (semiosis)** – bu belgilarning ma'no hosil qilishi, uzatilishi va qabul qilinishi jarayonidir. U tilshunoslik, semiotika, falsafa, kognitiv fanlarda muhim kategoriya hisoblanadi. Semiozis – bu: **belgi** → **Ma'lumot** → **Tushunish** jarayonini ifodalaydigan nazariy tushuncha. Uni birinchi bo'lib **Charles Sanders Peirce (Peirce)** va keyinchalik **Charles Morris**, **Roman Jakobson**, **Umberto Eco** kabi olimlar rivojlantirgan.

Sintaktik antonimlarning funksional – kognitiv modellarini tahlil qilishda bir qator omillarga e’tibor qaratish lozim. Ma’lumki, zid munosabatli konstruksiyalarda zidlik munosabatining ifoda etilishi va tafakkurda mental kategoriyalarning tashkillanishini tahlil qilishda ularning **kognitiv asosiga** alohida e’tibor qaratilishi lozim. Masalan, bizning tafakkurimizda qarama-qarshi juftliklar asosan, *harakat – to’xtash, mavjudlik – yo’qlik* singari kalit – stimul konseptlar atrofida strukturlashadi. Shuningdek, tipik konstruksiyalar va ularga yondosh konstruksiyalar ham sintaktik antonimlar paradigmasining funksional – kognitiv modelini aniqlashning asosini tashkil etadi. Bundan tashqari, sintaktik antonimlarning yuqorida sanlagan imkoniyatlari va ularning roli kommunikasiyada tahlil qilinadi. Masalan, bir konstruksiyaning o’rniga boshqasini tanlash nutqiy kommunikasiyada so’zlovchining faktik ma’lumotni ta’kidlash, gumonini ifoda etish, inkor etish maqsadiga bog’liq ravishda tanlanadi.

Sintaktik antonimlar bir sintaktik qurilishning mantiqan qarama-qarshi qurilishga ega bo’lishi bilan muayyan, tizim – paradigmani hosil qiladi. Masalan, “*Men ko’ryapman ↔ Men ko’rmayapman*”; “*Onam kechki ovqatni tayyorlayapti ↔ Kechki ovqat onam tomonidan tayyorlanayapti*” singari. Bunday qarama-qarshiliklar funksional belgilari bilan sistemalashadigan paradigma doirasida tashkillanadi. Sintaktik antonimlarning funksional – kognitiv modellari til egalarining qanday qilib matn va kommunikativ maqsadga bog’liq qarama-qarshi sintaktik konstruksiyalarni tanlashlarini aniqlashga yordam beradi.

Inson emosional tafakkuri orqali ob’ektiv olam haqidagi bilimlarni ijobiy yoki salbiy jihatlariga ajratadi. Unda qiymatlilik mezoni yetakchilik qilib, bu jarayonda kishilar voqea va hodisalarning inson uchun foydali yoki zararli ekanligiga qarab ularni tahlil qiladi, saralaydi va reprezentasiyalaydi. Masalan, “*U xushmuomala ↔ U beodab*”; “*Bu erda havo toza ↔ Bu erda havo iflos*”; “*Ular yordam berishdi ↔ Ular qarshilik qilishdi*” kabi. Bunday sintaktik antonimlarning yuzaga kelishida inson kognitsiyasidagi ijobiy va salbiy tasavvurlar zidliklar orqali shakllanishi kognitiv asos bo’lib xizmat qiladi. Bu model inson ongida **yaxshi va yomon hissiyotlarni farqlash** mexanizmlarini yaratadi. Yuqoridagi fikrlarni quyidagi tarzda modellashtirishimiz mumkin. Keltirilgan

gaplarning **lingvokognitiv formulasi: $A \rightarrow A$ (Ijobiy ↔ Salbiy)**. **Strukturasi:** Subyekt+ijobiy sifat Subyekt + ijobiy sifat Subyekt+ijobiy sifat ↔ Subyekt+negativ sifat Subyekt + negativ sifat Subyekt+negativ sifat tarzida.

Misollarda ko’rib chiqamiz: “*Bu yerda havo toza ↔ Bu yerda havo iflos*”; “*U xushmuomala ↔ U beodab*”; “*Bu mehmonxona arzon ↔ Bu mehmonxona qimmat*”. Berilgan gaplarning kognitiv modelini quyidagi tarzda ifodalash mumkin: **$A = (N + A_{ijobiy}) \leftrightarrow A = (N + A_{salbiy})$** kabi. Umuman olganda, sintaktik antonimlar nafaqat til birliklari hodisalarini, balki kognitiv modellar sifatida tafakkur jarayonini ham shakllantiradi. Ularning **tasdiq-inkor, harakat-aks harakat, bor-yo’q, sabab-natija, ixtiyoriylik-majburiylik hamda ijobiy-salbiy taassurot** kabi funksional modellari insonning real voqelikni qanday qabul qilishini ko’rsatadi. Ushbu kognitiv modellar orqali til va tafakkur o’rtasidagi murakkab aloqalarni tahlil qilish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarimizni jadvallarda yanada aniqroq ko’rsatishimiz mumkin:


Sintaktik antonimlar paradigmatic-funksional modellari

Model nomi	Tushuntirish	Misollar
Tasdiq-inkor modeli	Bir gap tasdiq, ikkinchisi inkor shaklida keladi.	Men bilaman – Men bilmayman.
Harakat-qarshi harakat modeli	Harakat va uning teskari ta’sirini ifodalaydi.	Men keldim – Men ketdim.
Bor-yo’q modeli	Ob’ekt yoki hodisaning mavjudligi yoki yo’qligi ko’rsatiladi.	Menda pul bor – Menda pul yo’q.
Sabab-natija modeli	Bir gap sabab, ikkinchisi natijani ifodalaydi.	U uxlamadi – U charchadi.
Ixtiyoriy-majburiy modeli	Ixtiyoriy va majburiy holatlarni ko’rsatadi.	Sen tanlaysan – Sen majbursan.
Ijobiy-salbiy taassurot modeli	Ijobiy va salbiy taassurot uyg’otuvchi zidlikni ko’rsatadi.	Bu yerda havo toza – Bu yerda havo iflos.

Sintaktik antonimlarning kognitiv tuzilishi.

Quyida sintaktik antonimlarning funksional-kognitiv modellari sxemali shaklda tasvirlanadi:

Sintaktik antonimlar



Ushbu modellar yordamida sintaktik antonimlar inson tafakkurida qanday shakllanishi va tilda qanday namoyon boʻlishi tushuntiriladi.

Sintaktik antonimlar **paradigmatik munosabatlar** asosida bir-biriga bogʻlanadi. Paradigmatik munosabatlar til birliklarining maʼno jihatidan bir-biriga zid yoki muqobil kelishiga asoslanadi. Bu modellar inson ongidagi **kognitiv jarayonlar** va **lingvistik tuzilmalar** asosida shakllanadi.

Paradigmatik munosabatlar va ularning kognitiv-lingvistik modellardagi oʻrni

Model nomi	Paradigmatik munosabat	Kognitiv jarayon	Lingvistik formula
Tasdiq - inkor	Antonimiya (tasdiq ↔ inkor)	Haqiqat va yolgʻonni ajratish	$A \rightarrow A$
Harakat - aks harakat	Antonimiya (harakat ↔ qarshi harakat)	Harakat va muqobil harakat konsepsiyasi	$A \rightarrow B$
Bor-yoʻq	Antonimiya (mavjud ↔ yoʻq)	Voqelikni mavjudlik/yoʻqlik orqali tushunish	$A \rightarrow A$
Sabab-natija	Sabab-natija paradigmatasi	Hodisalarini sababiy bogʻliqlik asosida tushunish	$A \rightarrow B$

Ixtiyoriylik-majburiylik	Modallik antonimiyasi	Erkin tanlov va majburiyatni anglash	$A \rightarrow B$
Ijobiy-salbiy taassurot	Baho antonimiyasi	Taassurotlarni ijobiy/salbiy sifatida qabul qilish	$A \rightarrow A$

Xullas, sintaktik antonimiya zidlanishning alohida koʻrinishi sifatida sintaktik birliklar shakli va mazmuni oʻrtasidagi aloqa-munosabatni aks ettiradi. Sintaktik antonimiyani belgilashning bosh mezonni semantik mezon boʻlib, bu mezon sintaktik birliklar semantikasidagi qarama-qarshi zid mazmuniy munosabatga asoslanadi.

Sintaktik antonimlar paradigmasining funksional-kognitiv modeli oʻzida antonimlarni oʻrganishdagi kognitiv va funksional yondashuvni talab etadi. Bunday yondashuvda asosiy eʼtibor sintaktik konstruksiyalardagi qarama-qarshilikning yuzaga kelishi, funkcionallashishi va uning til egalari tafakkurida qabul qilinishiga qaratiladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М., 1997. – 416 с.
2. Кубрякова Е.С. Язык и знание. На пути получения знаний о языке. – М., 2004.
3. Булыгина Т.В., Шмелёв А.Д. Типология противительных конструкций. – М., 1997.
4. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago, 1980.
5. Peirce C.S. *Writings on semiotic*. – Chapel Hil, NC: University of North Carolina Press, 1991. – 294 p.
6. Peirce C.S. *The Collected Papers of Charles Sanders Peirce* // eds. Charles Hartshorne, Paul Weiss, Arthur W. Burks. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1958. –Vol. 1-8.
7. Morris C.W. *Foundations of the Theory of Signs*. – Chicago: University of Chicago Press, 1938.
8. Morris C.W. Morris, Charles W. *Signification and Meaning* // in: *Semiotics: An Introductory Anthology* / ed. Robert E. Innis. – Bloomington: Indiana University Press, 1985.